



# GAMIFIKATSIYA VA SUN'iy INTELLEKT INTEGRATSİYASI: XORİJIY TIL O'QITISHDA MOTIVATSIYANI OSHIRISHNING INNOVATSİON YONDASHUVLARI

**Muallif:** Madina Muzaffarova

**Tashkilot:** Stafford Language Learning Centre, Navoiy

**Annotatsiya** Ta'lif jarayonida gamifikatsiya (o'yinlashtirish) elementlaridan foydalanish o'quvchilar motivatsiyasini oshirishda samarali vosita sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi ushbu jarayonni yanada interaktiv va shaxsiylashtirilgan shaklga olib chiqmoqda. Ushbu tezisda gamifikatsiya va AI integratsiyasining xorijiy til o'qitishdagi afzalliklari hamda mumkin bo'lgan cheklovleri tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** gamifikatsiya, sun'iy intellekt, motivatsiya, xorijiy til o'qitish, innovatsiya

## Kirish

Til o'qitishda motivatsiya muhim omil sanaladi. An'anaviy usullar ko'pincha talabalarni yetarlicha qiziqtira olmaydi. Gamifikatsiya elementlari (ball, reyting, virtual mukofotlar) sun'iy intellekt texnologiyalari bilan uyg'unlashtirilganda, ta'lif jarayoni yanada interaktiv va shaxsiy ehtiyojlarga moslashgan bo'ladi.

## Asosiy qism

Sun'iy inellekt bugungi kunda talimda keng qo'llanilishi lozim bo'lgan vozitalardan biri.

AI va gamifikatsiya integratsiyasi quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- O'quvchilarning til darajasiga mos shaxsiylashtirilgan topshiriqlar yaratish;

Reasearchgate.net online nashryot fikriga ko'ra gamifikatsiya o'yin mexanizmlarini o'yin bo'limgan muhitlarga qo'llab, foydalanuvchilarni rag'batlantirish va jalb qilishni ta'minlaydi. Bundan tashqari Sun'iy intellekt (AI) gamifikatsiyani shaxsiylashtirish va optimallashtirish uchun kuchli vositalarni taqdim etib, foydalanuvchilarning ehtiyojlari, afzalliklari va faoliyat darajalariga moslashadi

- Raqamli avatarlar va virtual roller orqali suhbatlarda faol ishtirokni ta'minlash;
- Real vaqt rejimida mukofotlash tizimi yordamida motivatsiyani oshirish;

Central.com website da aytilishicha sun'iy intellekt real vaqtli fikr-mulohaza berish va moslashuvchan o'rghanish imkoniyati mavjud. Bu orqali foydalanuvchilar gamifikatsiya qilingan platforma bilan o'zaro aloqada bo'lganlarida, AI tizimlari ularning faoliyati va xatti-harakatlarini tahlil qilib, foydalanuvchi qaysi jihatlarda muvaffaqiyat qozonayotganini yoki qayerda qiynalayotganini aniqlashi mumkin. Va bularning hammasi o'z navbtaida o'rghanuvchilarda ishtiyoqning oshishiga qisqa vaqtda ko'proq malumot o'rghanish imkonini beradi.

- Xatolarni o'yin jarayonida sezilmash tarzda tuzatish. Shu bilan birga, ayrim cheklovlar ham mavjud:



O‘yin elementlaridan ortiqcha foydalanish mazmuniy chiqurlikni kamaytirishi mumkin; O‘yin ichida xato qayd etilganda o‘quvchi jarayondan uzilib qolmasin; tuzatish darhol, yumshoq va motivatsiyani pasaytirmagan holda beriladi. JIT-ko‘mak (just-in-time): noto‘g‘ri javobdan so‘ng to‘g‘riga yaqin variantlarga ishora, qisqa “hint”lar, misol-andozalar paydo bo‘ladi. Shoxlanish (branching): xato qilingan mavzu bo‘yicha darhol soddaroq mini-level ochilib, 1–2 mashq bilan kamchilik bartaraf etiladi, so‘ngra o‘yin oqimiga qaytadi. Yumshoq signal: qizil xatolik o‘rniga neytral animatsiya, “Yaxshi urinish! Keling, bu qadamni yana bir marta sinab ko‘ramiz” kabi matnlar. Takroriy amaliyat: shu xato naqshini 24–48 soat ichida mikro-mashq sifatida qaytarish (spaced repetition).

- AI tizimlarida texnik nosozliklar yoki noto‘g‘ri baholash ehtimoli;

Noto‘g‘ri baho (false pos./neg.): ayniqsa nutqni avtomatik baholashda sheva, shovqin, mikrofon sifati ta’sir qiladi. Ma’lumot tarafkashligi: model treningida ayrim guruqlar kam yoritilgan bo‘lsa,adolat buziladi. Model drift: vaqt o‘tishi bilan model aniqligi pasayishi. Nosozliklar: internet uzilishi, server xatosi, sensordan noto‘g‘ri signal. Profilaktika va yechimlar: Inson nazorati (human-in-the-loop): muhim baholarni o‘qituvchi tekshirishi uchun “re-review” tugmasi. Kalibratsiya va ko‘rsatkichlar: har hafta WER/CER (nutqda), ROC-AUC/MAE (testlarda) hisobot; xatolik chegaralari oshsa, avtomatik ogohlantirish. Zaxira rejim: server ishlamasma ham o‘yin offline mini-mashqlarni taklif qiladi; baho vaqtincha “o‘qituvchi tasdig‘i kutilmoqda” holatida saqlanadi. Shaffoflik: “Nega bu baho qo‘yildi?” oynachasi—qaysi mezonlar bajarilmagani aniq ko‘rinadi. Maxfiylik va xavfsizlik: anonimlashtirish, minimal ma’lumot yig‘ish, foydalanuvchi roziligi. Va albatta haddan tashqari raqobat o‘quvchilar orasida stressga olib kelishi mumkin.

### Xulosa

Gamifikatsiya va sun’iy intellektni birlashtirish xorijiy til o‘qitishda motivatsiyani oshirishning innovatsion yondashuvi hisoblanadi. Bu model ta’lim samaradorligini oshirishi mumkin, biroq u muvozanatli va ehtiyyotkorlik bilan qo‘llanilishi zarur.

### Adabiyotlar ro’yxati

1. researchgate.net/publication/385920234\_Gamification\_and\_AI\_Enhancing\_User\_Engagement\_through\_Intelligent\_Systems
2. <https://centrical.com/resources/gamification-ai/>